

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Mustafoyeva Marhabo Nurillayevna

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Annotation: Bizga ma'lumki zamonaviy pedagogik faoliyatni tashkil etishning eng asosiy negizi bu o`qituvchi va o`quvchilarning hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga, metod va usullarga bog`liq. Shunga ko`ra har bir dars mavzusi, o`quv predmetining o`ziga xos texnologiyasi , ya`ni o`quv jarayonidagi pedagogik texnologiyalarni tashkillashtirish bu yakka tartibdagi jarayoni bo`lib, u o`quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo`naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etish orqali biz o`quvchilarning dunyoqarashi, ijodkorlik ya`ni produktiv qobiliyatini rivojlanishimiz mumkin.

Kalit so`zlar: ijodkorlik, ijodkorlik qobiliyati, ta'lism texnologiyasi elementlari, PISA, PIRLS, TIMSS, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ta'limg sohasida ham bugungi kunda ulkan o'sish barcha sohalardagi kabi mакtab ta'limg tizimida ham erishilayotgan yutuqlar yanada oshmoqda. Bu o'z-o'zidan o`quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshishini va o`qituvchilarning har tomonlama ta'limg tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqorida talablarning ta'limg tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'limg va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'limg sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ta'limg sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limg sifati Xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS, TIMSS va boshqalar orqali belgilangan muddatda dunyo bo`ylab 80dan ortiq davlatlar o`rtasida reytingini aniqlab olinmoqda. Bu dasturlar esa o`quvchilarning o`qish va tushinish savodxonligi, tabiiy fanlar, matematika savodxonligi va mantiqiy tafakkurini aniqlashga qaratilgan.

Ijodkorlik o'rganishning muhim jihatni hisoblanadi. Ijodkorlik tufayli o`quvchi o'rganishga ijobiy munosabatda bo'ladi va uning o'rganishi yanada qiziqarli bo'ladi.

Ijodkorlik qobiliyati orqali o'quvchi passiv ma'lumotni ijodiy mahsulotga aylantirish orqali faollashtiradi.

Inson umri davomida egallangan ijodkorlik tufayli kundalik hayotidagi muammolarni hal qila olish bilan bir qatorda muammoga turli tomonlardan qaray oladi va vaqt o'tgan sari samaraliroq harakat etuvchi darajaga ega bo'ladi.

Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadlaridan biri: o'quvchilarni kelajak hayoti uchun yaxshi tayyorlash va ularni kasbiy faoliyatida ijodkorona yondashadigan yetuk shaxs qilib tarbiyalash. Shu sababli, ayni vaqtida Respublikamiz umum ta'lim maktablarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasida faol qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar hamda ularning ahamiyatiga e'tibor berilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni darslarda qo'llash dars davomida qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini beradi va o'quv jarayonini loyihalashtirish uning har bir daqiqasidan unumli foydalanishni amalga oshiradi. Dars mashg'ulotining muvoffaqiyatli o'tishining 80 % i o'quv jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishiga bog'liq.

Dars jarayonida maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchi – talabaning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Zamonaviy ta'lim texnologiyasi quyidagi elementlardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi;
2. Ta'lim oluvchi;
3. Ta'lim shakllari;
4. Ta'lim maqsadi;
5. Kutilayotgan natija;
6. Ta'lim metodlari;
7. Ta'lim vositalari;
8. Nazorat va baholash.

Elementlardan eng asosiysi maqsad va kutilayotgan natijalar. O'quv maqsadi – bu muayyan ta'lim jarayonini yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni xosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlari va xulqini belgilaydi.

O'qituvchi yuqoridaqilarni inobatga olgan holatda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, ijodkorlik bu faqatgina yangiliklarni kashf qilish emas balki, kishining fikr yuritishi, biror tadbirli faoliyatni o'ylab topishidir bu jarayonda o'quvchi har qanday ta'limiy faoliyatda o'ziga xos usullar bilan masala yechish, muammoli vaziyatlarni hal etish, insho yozish va musataqil ravishda fikrini bayon etish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Biz bu jarayonlarda ijodkorlik faoliyatini o'quvchilarda shakllantirish uchun turli xil

keyslardan, grafik organayzerlardan va o`quvchilarning bilish jarayonlarini faol ishtirokini ta'minlaydigan metodlardan ham foydalanishimiz mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Drujinin V N “Umumiyl qobiliyatlar psixologiyasi” 2000-yil.
2. Kruglova N V “ Ijodiy shaxs fanning diqqat markazida” 1991-yil.
3. Yakovleva E L “ O`quvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish”
4. G`oziyev E “ Umumiyl psixologiya”.
5. Xadjayev B “ Umumiyl pedagogika”